

## SUV XO'JALIGIDA QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH UCHUN USLUBIY TAVSIYALAR

*MTU "TIQXMMI" d.e.n Mamatqulov M.Sh  
MTU "TIQXMMI" magistr Gafurova Sh.D*

Ushbu maqola suv xo`jaligidagi qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini tashkil qilinish masalalariga bag`ishlangan bo`lib, unda boshqaruv hisobini tashkilotlarda joriy etish bo`yicha tashkiliy – uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so`zlar:** suv xo`jaligidagi qurilish tashkilotlari, boshqaruv hisobi, me`yoriy hujjatlar, suv xo`jaligida qurilish, rejalashtirish, 4 – BHMS, kalkulyatsiya, standart cost, direct cost.

Данная статья посвящена организации управленческого учета в сельскохозяйственных строительных компаниях, в которых даются организационно-методические рекомендации по внедрению управленческого учета в организациях.

**Ключевые слова:** водохозяйственные строительные организации, управленческий учет, нормативные документы, водохозяйственное строительство, планирование, 4 – НСБУ, исчисление, нормативная стоимость, прямые затраты.


This article focused on the organization of management accounts in agricultural construction companies, which provide organizational and methodological recommendations for the implementation of management accounting in organizations.

**Keywords:** construction organizations, management accounting, regulatory documents, water management construction, planning, 4 – NSA, calculus, standard cost, direct cost.

O`ylashimizcha boshqaruv hisobining shakllanishi bilan buxgalterlarga nafaqat xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini kalkulatsiya qilish, balki tashkilotning hisob siyosatini shakllantirish, byudjetlashtirish, loyihalar tahlili, segmentlar bo`yicha xarajat va daromadlarni hisobga olish hamda ular bo`yicha hisobotlar tuzish, ichki xo`jalik transfert baholarini joriy qilish, hisob tizimini avtomatlashtirish kabilar yuklatildi.

Bugungi kunda boshqaruv hisobini qo'llashda ma'lum qiyinchiliklar mavjud. Ko'pincha buxgalterlar moliyaviy hisob va hisobot, soliqlar hisobi va hisoboti, uning ob'ektlari va sub'ektlari ma'lum bo'lganligiga qaramasdan buxgalterlarning ko'p vaqt shu masala bilan band bo`lib, boshqaruv hisobining samarali tizimini tashkil etish uchun vaqt yetishmasligini aytishadi. Shunga qaramasdan, buxgalterning buxgaltermenejerga aylanishi tendentsiyasi kuchaya boshladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, boshqaruv hisobini rivojlantirishning quyidagi nazariy va amaliy yo'nalishlarini belgilash mumkin (1– chizma).



### 1 – chizma. Buxgalteriya hisobi shakllarini rivojlantirish yo'nalishlari<sup>1</sup>

Korxonalarda boshqaruv hisobi tizimida byudjetlashtirishni amalga oshirishning zaruratlisdirdi, uning yordamida rejalshtirilgan hisobot davrida korxona rahbari va xodimlari oldida turgan maqsad va vazifalarni shakllantirish, ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, daromad va xarajatlami aniqlash, amalga oshiriladigan hisobkitoblar to'g'riligini kuzatib borish mumkin. Mamlakatimizda boshqaruv

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlangan

hisobining rivojlanishi mavjud buxgalteriya hisobi tizimining ikki mustaqil: moliyaviy va boshqaruv hisobi schetlar rejasiga bo'linishiga olib keldi<sup>2</sup>.

Suv xo'jaligidagi qurilish korxonalarida xarajatlar hisobi va tannarx kalkulatsiyasining hozrigi kunda foydalanilayotgan usullarini qo'llash ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini to'g'ri aniqlash, normadan chetga chiqishlar hisobi va tahlilini yuritish kabi imkoniyatlarni beradi. Ularga "Direkt-kosting", "Standart-kost", "JIT", "ABC", "SCA" va "FQT" larni kiritish mumkin.

2 – jadval

**Suv xo'jaligi tashkilotlarida xarajatlarni hisobga olishda qo'llash taklif etilayotgan usullar tasnifi<sup>3</sup>**

Hisob usuli	Qo'llash tartibi	Takliflar
Oddiy usul	Bir turdag'i mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaradigan hamda yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'limgan tashkilotlarda qo'llaniladi. Ushbu usul qo'llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi <sup>4</sup> .	Xizmatlar ko'rsatish turlari bir necha turlardan iborat ekanligi tufayli ushbu usulni qo'llab bo'lmaydi
Me'yori y usul	Xom ashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yordagi xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me'yordagi vaqtiga vaqtiga bilan tahlil qilinib turiladi va zarur hollarda joriy shart-sharoitlarga muvofiq qaytadan ko'rib chiqiladi <sup>5</sup>	Tuzilgan xarajatlar smetasiga muvofiq xarajatlarni hisoblashda

<sup>2</sup> Управленческий учет. Т.1.-Т.: изд.НАБиА Узбекистан. 2004.-139 с.

<sup>3</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>4</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y., 10/20/3259/1055-son. lex.uz/docs/4890446. 4-sonli BHMS "Tovar – moddiy zahiralar", 38-band

<sup>5</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y., 10/20/3259/1055-son. lex.uz/docs/4890446. 4-sonli BHMS "Tovar – moddiy zahiralar", 39-band

		qo'llash tavsiya etiladi
Buyurtmali usul	<p>Yakka tartibdagi va ko'p seriyali bo'limgan ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llanadi, bunda ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotga (ishga, xizmatga) (bir xildagi mahsulotlar guruhiga) doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikatsiyalanadi va hisobga olinadi. Buyurtmaning ob'ekti bo'lib mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruktsiyalarga ega bo'lgan alohida agregatlari, uzellariga berilishi mumkin. Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi. Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi) tugallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo'yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini tashkil qiladi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) turkumidan iborat bo'lsa, mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi. Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish tannarxi ularning konstruktsiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalarning tannarxi bo'yicha baholanadi<sup>6</sup>.</p>	Tadbirkorlik asosida qo'shimcha daromadlar topish maqsadlarid a amalga oshirilgan xizmatlar uchun sarflangan xarajatlarni hisoblashda qo'llash mumkin
Bosqichli usul	Boshlang'ich xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan	Xizmatlar ko'rsatish

<sup>6</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y., 10/20/3259/1055-son. lex.uz/docs/4890446. 4-sonli BHMS "Tovar – moddiy zahiralar", 40-band

	tashkilotlarda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi. Bosqichli usul tashkilotning tarmoqqa mansubligiga bog'liq holda yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz turlarda amalga oshirilishi mumkin. Yarim tayyor mahsulotli turda har bir bosqich bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar) tannarxi va mazkur bosqich bo'yicha xarajatlardan iborat bo'ladi. Oxirgi bosqich mahsulotining tannarxi barcha tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblanadi. Yarim tayyor mahsulotsiz turda faqat oxirgi bosqich bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo'yicha alohida hisobga olinadi. Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi <sup>7</sup> .	turlari bir necha turlardan iborat ekanligi va xizmat ko'rsatishda bosqichlarga bo'linmasligi tufayli ushbu usulni qo'llab bo'lmaydi
Direct costing	Mahsulot tannarxi bevosita xarajatlar hajmida aniqlanadi, ortiqcha xarajatlar esa bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish schyotlariga tegishli bo'ladi. Agar tannarxni hisobkitob uchun hisoblab chiqish zarur bo'lsa qisqartirilgan ulushga korxonada o'rnatilgan normalar bo'yicha ortiqcha xarajatlarni qo'shish uchun sharoit mavjud bo'ladi.	Tuzilgan xarajatlar smetasiga muvofiq xarajatlarni hisoblashda qo'llash tavsiya etiladi

Boshqaruv hisobida oqilona investitsiya qarorlari qabul qilishni ta'minlash korxonaning investitsiya faoliyati murakkabligi va dastlab taqdim qilinayotgan loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularning ko'p mablag' talab qiladigan tomonlarini tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

<sup>7</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y., 10/20/3259/1055-son. lex.uz/docs/4890446. 4-sonli BHMS "Tovar – moddiy zahiralar", 41-band

Izlanishlarimiz natijasida, suv xo'jaligidagi qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi va hisobotlari tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni taklif etamoqchimiz:

1. Hisobotlarning loyihalashtirish va ularni turli darajadagi rahbarlar ehtiyojlariga moslashtirish;
2. Uzoq muddatli, o'rta muddatli va joriy rejalarini ishlab chiqish va va ularni o'zaro bog'lash;
3. Rejalashtirish tizimini maqbullashtirish;
4. Ichki nazorat tizimini ishlab chiqish;
5. Xarajatlarni hisobga olish tizimini va ularning rejadagi darajasini hisoblash me'yoriy bazasini takomillashtirish.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. 4-sonli BHMS "Tovar – moddiy zahiralar" Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y., 10/20/3259/1055-son. lex.uz/docs/4890446., -38-41-band
2. Управленческий учет. Т.1.-Т.: изд.НАБиА Узбекистан. 2004.-139 с.
3. Abdug'aniyev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari. Monografiya. – Т.: ТМИ, 2003.
4. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
5. www.Dissercat.com